

QASHQADARYO HAVZASIDA TURISTIK MARSHRUTLAR TASHKIL ETISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Usmanova Rohatjon. G.f.n.dots.

Qarshi davlat universiteti

Toshniyozov S.K.

Qarshi davlat universiteti talabasi

To’laganov N.U

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Qashqadaryo havzasidagi mavjud turistik imkoniyatlardan samarali foydalanish, turizmni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi bayon qilingan. Qashqadaryo havzasida tashkil qilish mumkin bo’lgan turistik yo’nalishlar haqida izoh berilgan.*

Kalit so‘zlar: turizm, turistik resurs, etnografik turizm, markaz, qo’riqxona, observotoriya, tabiat yodgorliklari, arxitektura yodgorliklari, urochishe, muzey, g’or, buloq, dovon, muzey.

GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE ORGANIZATION OF TURISTIC ROUTES IN THE KASHKADARYA BASIN

Annotation: *the effective use of existing tourist opportunities in the Kashkadarya Basin, the development of tourism is described as one of the pressing issues of today. There are comments about tourist routes that can be organized in the kashkadarya basin.*

Keywords: *tourism, tourist resource, ethnographic tourism, center, reserve, observatory, nature monuments, architectural monuments, urochishe, museum, save, spring, pass, museum.*

Kirish. O‘zbekiston turizm resurslari zahirasi va turli–tumanligi bo‘yicha jahondagi eng boy davlatlar qatorida turadi. Turistik marshrut tashkil qilishda turistik resurslarni o‘rganish va aniqlash muhim vazifalardandir. Marshrut–fransuzcha *marche*–yurish, oldinga harakat, *route*–yo‘l, rus tilida ham *marsholdinga* yurish hisoblanadi. O‘zbekistondagi tarixiy, madaniy, arxeologik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlar soni 4,0 mingdan oshadi. Turistik marshrut tashkil qilishda turistik resurslarni o‘rganish va aniqlash muhim vazifalardandir. Turizmni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri turistik resurslarga marshrutlar ishlab chiqish hisoblanadi. Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri tabiiy muhitni saqlash masalalarini hal qilishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Ushbu yondashuvni majmuali holda murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy va turistik-rekreatsiyani ekologik tizim sifatida qaralishida muammolarni hal qilishda yetakchi o`rinni turizm egallaydi.

Tadqiqot usullari. Ushbu ishni tayyorlashda bir– biri bilan bog`liq bo‘lgan ilmiy yondoshuvlar, tamoyillar va usullardan foydalanildi. Tadqiqot negizida

iqtisodiy geografik, kartografik, geobotanik, geoekologik, tibbiy geografik, tarixiy va qiyoslash kabi ilmiy tadqiq usullari yotadi. Ushbu usullar turistik resurslarini aniqlashda foydalaniladi, hamda ulardan amaliy jihatdan foydalanishga imkon beradi.

Asosiy qism. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari o`zlaridagi mavjud tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida turizmga katta e'tibor qaratmoqda. O`zbekistonning turli mintaqalarida turizmning qator turlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamyatga ega. Zamonaviy turizm sanoati iqtisodiyotning yuqori daromad keltiradigan va jadal rivojlanib borayotgan yirik tarmoqlaridan bo`lib, u dunyo xalqlari madaniyati sohasida amaliy muloqot vazifasini o`tamoqda. Sayyohlik dunyodagi ko`plab davlatlarda daromad olishning asosiy sohalaridan biridir.

Turistik resurslar ikki guruhga bo`linadi, ya`ni -tabiiy turistik resurslar va ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar. Tabiiy turistik resurslarga hudud relyefi, suvlari, iqlimi, florasi, faunasi va boshqalar kiritiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslarga esa, madaniy-tarixiy, etnografik, turistlarga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqaruvchi obyektlari, siyosiy va boshqalarni kiritiladi. Jumladan bular ham yana bajaradigan vazifalariga ko`ra guruhlanadi. Turistik marshrutlarni ishlab chiqishda, turizmni rivojlantirishda, turizm obyektida, turizm marshruti davomida turistlarning nimalarga qiziqishini, ularning ehtiyojlarini o`rganish, turistik obyektda va turistik marshrut bo`ylab o`ziga xos bo`lgan kichik-kichik turistik infratuzilmalarning shakllantirish zaruratini yaratadi.

Mamlakatimizda qolaversa, Qashqadaryo havzada turistik imkoniyatlari juda katta, ulardan samarali foydalanish va umuman turizmni rivojlantirish istiqbollarini nazarda tutib, biz hududning mavjud turistik salohiyatini o`rganish va baholash amaliy ahamiyat kasb etishini e'tiborga olgan holda, Qashqadaryoning turistik marshrutlari imkoniyatlarini, turizm industriyasini tahlil qilish va rivojlantirishni hamda tashkil qilish hududni yanada chuqurroq o`rganishni talab qiladi. Qashqadaryo viloyatida betakror turistik obyektlarini o`rganishni maqsad qildik.

Havza asosan paleozoy erasiga mansub bo‘lgan intruziv jinslar, ohaktoshlar va slanetslardan tuzilgan bo‘lib, ushbu havzaga tegishli bo‘lgan tog‘laming devon davri ohaktoshlari tarqalgan mintaqalarda ko‘plab karst g‘orlarini uchratish mumkin. Bundan tashqari daralarda tik devorsimon joylashgan intruziv jinslar ham o‘ziga xos ajoyib tabiat ko‘rinishlarini tashkil etadi. Shuning uchun bu yeming tik ko‘tarilgan devorlarida dinozavr izlari ham saqlanib qolgan. Daryolar o‘zaniga kelib qo‘siluvchi yonbag‘irlaridan bir qator sharsharalar ham joylashgan. Daryoning quyi qismi bo‘ylab va uning turli irmog‘larining yuqorisida bir necha oromgohlami, dam olish maskanlarini, tog‘oldi va tog‘ turizmiga kiruvchi infratuzilmani tarkib toptirish, qurish bilan aholini turistik-rekreatsiya tuzilmaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlari tarkibiga kiruvchi havzani janub tomondan chegaralab turuvchi bir qator tog‘lar Eshakmaydon, Xontaxti va boshqalar karbon davridan tarkib topgan. Havzaning sharqida joylashgan Xojapiryax tog‘ massivi silur va devon davrlarining kristalli ohaktoshlaridan tuzilgan. Bu tog‘lar dastlab gersin so‘ngra esa al’p - orogenezida burmalangan, havzaning hududidagi tog‘larda yura davrining iliq dengiz hududlari hisoblangan gips-angidridli jins majmularidan tashkil topganligi bunga misol bo‘la oladi. Shu kunda daralarda katta-kichik tog‘lar ko‘plab uchraydigan bu tog‘larda tog‘ etagining dengiz sathiga tutash tekisliklarida dinozavrlar yashaganligi aniqlangan.

Yakkabog‘ daryoning o‘rtal oqimidagi Zarmas darasidan janubi- g‘arbda Tumabuloq boshlanadigan Qizilg‘aza dovonigacha 20-25 km masofa yastanib yotgan Eshakmaydon va Toytalash tog‘lari (2800 m) bilan tutashgan. Guldara, Langar daryo va Kattao‘ra daryo suv ayirg‘ichi Xontaxti va Kurik tog‘lari al’p orogenezida burmalangan tizmalardir. Tog‘laming yonbag‘ri juda tik ammo usti bir qator yassi platosimon relyyefga ega.

Havza iqlimining tarkib topishida uning yer usti tuzilishi, relyefi ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu yeming sharqiy, janubiy v shimoliy tomonlari tog‘ bilan o‘ralgan bo‘lib, faqat g‘arbiy qismi ochiqdir. Shu sababli bu yerda g‘arbdan esuvchi havo massalari kirib keladi.

Mazkur hudud iqlimining qaror topishida mahalliy havo massalari hisoblangan tog‘, vodiy shamollari muhim o‘rin tutadi. Tog‘larda havo haroratining kunduzlari tez isib, kechalari sovishi oqibatida mahalliy havo sirkulyatsiyasi yuzaga keladi va havolaming almashib turishi uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Qish ob-havosi o‘zgaruvchan bo‘lib, eng sovuq harorat yanvar oyida kuzatiladi. Bu oyning o‘rtacha harorati 00 dan -60 gacha o‘zgarib turadi. Havzaning adir qismida 0° bo‘lsa, baland tog‘li qismlarida -6° ga tushadi. Arktika sovuq havosi kirib kelganda, -27 - 30° gacha tushib ketadi.

Yillik bug‘lanish tushadigan yog‘inga nisbatan ancha yuqorligi bilan xarakterlanadi. Yillik bug‘lanishni yuz foiz desak, 80-85 % i yilning issiq davriga (may, oktabr oyiga) to‘g‘ri keladi.

Qashqadaryo havzasining suv resurslarini Qashqadaryo va uning irmoqlari, yer osti suvlari va mineral buloqlari muhim resurslarini tashkil qiladi, yer osti suvlari va mineral buloqlari ham muhim suv resurslarini tashkil qiladi.

Turistik- rekreatsiya resurslaridan amaliy jihatdan foydalanish maqsadida Qashqadaryo havzasi tabiiy sharoitlari va resurslarini tahlil qilish va ulaming turistik-rekreatsiyadagi imkoniyatlarini aniqlash birinchi darajali ahamiyatga molik. Shu jihatdan barcha asosiy tabiat komponentlari sayyohlik va rekreatsiya nuqtai nazaridan chuqur va atroficha tahlil qilindi. Bu borada har bir komponentning sayyohlik va rekreatsiya muhitini tashkil qilishdagi ahamiyati, xususan uning ijobiyligi va salbiy tomonlarini yaqqol va amq ifodalashga enshildi. Shunday ekan, jismoniy va ruhiy jihatdan sog’lom bo‘lish va organizmni har tomonlama chiniqtirishning eng yaxshi vositasi tabiat qo‘ynida bo‘lish, hamda tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan tanishish va sayr-sayohatlar uyushtirishdir. Quyida Qashqadaryo havzasi tutistik obyektlariga sayohat qilish va ulardan turistik marshrutlaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

1. Mirzo Ulug’bek nomidagi kenglik stansiyasi shahardan 1,5 km shimolda Kitob – Samarqand avtomagistrallining o‘ng tomonida joylashgan. Bu kenglik rasadxonasi 1993 yildan boshlab Mirzo Ulug’bek nomidagi “Baland tog‘” observatoriyalari

majmui” deb atalgan. Xalqaro kenglik xizmatini tashkil etish g’oyasi 1898 yilning oxirida shakllangan. Xalqaro kenglik stansiyasi 39 gradus 08 minut shimoliy kehglikda joylashgan.

2. Hazrati Bashir qishlog’i Kitob shahridan 30,5 km shimoli – sharqda Habash va Qul tog’lari oralig’idan olib o’tuvchi Qashqadaryo sohilida joylashgan. Bu yerda dam olish uchun barcha tabiiy sharoit qulay. Ayniqsa sharqirab oquvchi muzdek ammo ta’mi sutdek buloqlar o’z shifobaxshligini namoyon etib, g’ozal tog’ manzaralariga uyg’unlashib ketgan.

3. Xo’jaimkana asli nomi Xo’jailmkoni bo’lib, bu qishloq Kitob shahridan 9 km Sevaz fuqarolar yig’inida, Qoraxon tog’i etagida joylashgan. Qishloq sharqiy qismidagi tepalikda Xonoqo joylashgan. Bu joy kichik Makka hisoblangan. Xo’jailmkoniga ziyoratga keluvchilar Kitob shahrining Kovush qishlog’ida ot – ulovdan tushib hurmat yuzasidan piyoda borishgan. Shuning uchun bu qishloqning nomi “Kovush” deb yuritilgan.

4. Katta O’zbek trakti bo’ylab “Taxtaqoracha” dovonи tomon Qaynar maskaniga kirib boriladi. Bu qishloqning dovrug’i Yevropagacha yetib borgan. Qaynarda Mingbuloq, Mingchinor oromgohlari, o’nlab bolalar dam olish oromgohlari, asab va sil kasalliklarini davolash sanatoriylari mavjud. Turistlar Qirqqiz, Yettiqiz g’orlari va Taxtaqoracha dovonida bo’ladilar.

5. Xo’jaqo’rg’onga borish uchun Kitobdan Jovuzgacha va geologiya qo’riqxonasi muzeiyigacha avtomobil yoki otdan foydalanib, tabiat manzarasidan bahramand bo’lish mumkin.

6. Kitob qo’riqxonasi Zarafshon tog’ tizmasining janubi – g’arbiy tarmoqlarida joylashgan. Bu yerda 300-400 mln yil oldin Yerda mavjud bo’lgan hayot muhrlagan yotqiziqlar ochiq holda uchraydigan tog’ landshaftlari muhofaza qilinadi. Kitob geologiya qo’riqxonasining hududi 6 ta urochishega ajratilgan: Oqsuv yoki Obi –Safed, Xo’jaqo’rg’on, Zinzilbon, Qo’shnavo, Novdaroz. Bu yer ajoyib sayohat ob’ektidir.

7. Dinozavr izlariga sayohat –viloyatga keladigan sayohatchilar uchun “Dinozavr izlari”, “Qazilma o’simlik va hayvonot dunyosi” yo’nalishlarini tashkil

qilish zarur. “Dinozavr so’qmog’i” yo’nalishi Yakkabog’ tog’larida Toshqo’rg’on qishlog’idan 3,5 km janubda joylashgan. Bu noyob paleontologik topilma yura davrida, taxminan 140- 150 mln. yil ilgari yashagan qadimgi bahaybat kaltakesaklar – dinozavrlarning aniq panja izlari tushgan hududlardir. U yerda Dinozavr so’qmog’i va Amir Temur g’ori bor.

8. Amir Temur g’ori Hisor tog’larining janubi – g’arbiy tarmoqlarida 2500 metr balandlikda joylashgan. G’or stalaktit va stalagmitlarga boy. G’orning ichkarisida ko’l mavjud. Ko’l yuzasiga shipdagi yuzlab yirik stalaktitlar va yoriqlardan suv tomchilari tushib turadi. Amir Temur g’origa kelib ketayotgan turistlarga xizmatlar qilish bilan g’or atrofidagi qishloq ahli to‘liq shug‘ullanishadi. Tuya, ot, eshakda sayr, oziq-ovqatlar, ichimlik suvi bilan ta’minalash va xizmatlar ko’rsatish orqali mahalliy aholining ko‘p qismi yaxshi, yengil daromad topmoqdalar. G’or atrofida o‘ziga xos bo‘lgan turizm infratuzilmalari o‘zaro raqobat nati jasida tobora kengayib, mukammallahib bormoqda.

9. G’uzor – Dehqonobod- Oqrabot yonalishida G’uzorning tarixiy arxitektura yodgorliklari (Oqsaroy) bilan tanishiladi. Sayohatchilar bu yo’nalishda cho’ldan adirga, past tog’ va tog’ zonalari almashinishini yaqqol sezadi. Bu yerda sayohatchilar xalq udumlari bilan tanishishlari va bozorlarni tomosha qilishlari hamda toqqa chiqishlari mumkin.

10. Dehqonobod – Chashmaimiron- Tuyayaylov yo’nalishi –bu yerda tog’ manzarasi, musaffo havodan nafas olishdan tashqari sayohatchilar ko’plab tabiat sirlaridan voqif bo’ladilar. Dehqonoboddan Chashmaimironga borilib undan Tuyayaylovga o’tiladi. Bu yerda karst voronkalari va boshqa tabiat shakllarini ko’rish mumkin. U yerda archazor ormonlar va boshqa ajoyib tabiat manzaralari bor.

11. Dehqonobod – Konsoy- Tolko’l yo’nalishida sayyoohlар erta bahordan kech kuzgacha sayohatni amalga oshirish mumkin. Konsoyda shifobaxsh balchiq bor. Tolko’lda ov qilish, har xil dorivor o’simliklar bilan tanishish mumkin. Dehqonobod o’rmon xo’jaligi shu yerda joylashgan. Tog’ daryo vodiylari, daralari go’zal manzara hosil qilgan.

Xulosa qilsak, Qashqadaryo havzasida turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar, firma va korxonalarning istiqbol rejasini tuzishda ko'p maqsadli turistik yo'naliшlarini tashkil etish lozim. Buning uchun Qashqadaryo havzasida qulay turistik makонni shakllantirish va mavjud turistik obyektlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Turizmga oid barcha bilimlarni tahlil qilib, ularni yuqorida bayon qilingan usullar orqali o'rganish va ulardan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Hudud uchun mavjud turizm resurslari va sharoitlarini o'rganish asosida dam olish va sayohat qilish uchun zarur bo'lgan obyektlar aniqlandi. Bu hududda turizm bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni rejallashtirish, turistik obyektlarni ilmiy asoslangan holda joylashtirish, turizm industriyasini rivojlantirish ishlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) // Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321- 324.
2. Усманова Р. Оптимизация использования туристических ресурсов Кашкадарьинской области // Ўзбекистонни топ ўн туристик ҳудудлар қаторига киритиш истиқболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами Бухоро-2020 йил. 133-135 б.
3. Усманова Р. Роль природных факторов в развитии рекреации в бассейне реки Кашкадари Материалы международного научно- теор . конф . «Туризм и экономика», посвященной Году поддержки и развитию туризма в Кыргызстане. Ош-2001 .С. 69-71
4. Усманова Р. Problems of developing ecotourism in Kashkadarya region // Международная конференция «Прикладная экология и устойчивое развитие». Ташкент-2006. С. 243-245
5. Усманова Р., Бердикулова М. Географические аспекты развития туризма в Узбекистане.// VIII Международная научно-практическая конференция «Современные проблемы развития сферы туризма» Казахстан 2019 г. С. 97-100
6. Усманова Р., Навотова Д. Экотуристические потенциалы Кашкадарьинской области // Ўзбекистон география жамияти ахбороти 51-жилд, 1-қисм. Ташкент – 2017. С. 81-83
7. Усманова Р., Боймуродова Х. Агротуризмни ривожлантиришнинг географик жиҳатлари (Қашқадарё вилояти мисолида) // Вестник Аграрной Науки Узбекистана № 6 (6) 2022. 143-147 б.
8. Usmanova R., Boymurodova Kh.B. Geographical aspects of development of agrotourism in Kitab-Shahrisabz concave slope // "Экономика и социум" №3(118)-1 2024. С. 447-453.
9. Усманова Р. Сайёхликни ташкил қилишнинг турлари, ҳозирги аҳволи ва келажақдаги тараққиёти масалалари. //«География |ва қадриятлар». Ташкент, 2001. 81—85
10. Safarov I. B., Toshquvvatov I. T. Recreational and touristic opportunities of Uzbekistan's mountains // Экономика и социум. – 2023. – №.11(114). – С. 303-312.

11. Safarov I. B., Rasulov F. I. Prospects for the development of pilgrimage tourism (on the example of Koson district) //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 189-191.
12. Safarov I., Toshquvato I. Organization of mountain tourism in Kashkadarya region and its significance //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2024. – Т. 4. – №. 3. – С. 7-12
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва ,“Рус тили” нашриёти.,1981.- 316, 6.
14. Қашқадарё вилояти географияси. Қарши, 1994. 94 б